FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11(1)-son

UDK: 378.1:005/b

Axrarova Zebuniso Baxromovna,
O‘zbekiston Milliy universiteti “Pedagogik ta’lim” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI VA XOTIN-QIZLAR SAVODXONLIGI MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakatining ma’rifiy-pedagogik faoliyati hamda xotin-qizlar savodxonligini oshirish borasidagi tashabbuslari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Jadid namoyandalarining yangi usul maktablarini tashkil etish, qizlar ta’limini rivojlantirish, ayollarning ijtimoiy mavqeini yuksaltirish va yosh avlod tarbiyasida onalarning bilim darajasini oshirishga qaratilgan qarashlari yoritilgan. Ismoilbek Gaspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Shakuriy va boshqa ma’rifatparvarlarning faoliyati misolida Turkistonda xotin-qizlar ta’limi masalasining ijtimoiy-ma’rifiy mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, davriy matbuot materiallari, arxiv hujjatlari va tarixiy adabiyotlar asosida qizlar maktablarining tashkil etilishi, birgalikda ta’lim berish tajribalari, ayollarning madaniy hayot va teatr san’atiga jalb etilishi o‘rganilgan. Jadidlarning xotin-qizlar savodxonligini millat taraqqiyoti, oilaviy tarbiya va jamiyatning ma’naviy yangilanishi bilan bog‘liq holda talqin qilganliklari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik harakati, Turkiston, ma’rifatparvarlik, xotin-qizlar savodxonligi, yangi usul maktablari, qizlar ta’limi, milliy uyg‘onish, pedagogik qarashlar, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy.

ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ И ПРОБЛЕМЫ ГРАМОТНОСТИ ЖЕНЩИН В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация. В статье на основе исторических источников анализируется просветительско-педагогическая деятельность джадидского движения, сформировавшегося в Туркестане в конце XIX – начале XX века, а также его инициативы, направленные на повышение грамотности женщин. Раскрываются взгляды представителей джадидизма на организацию новометодных школ, развитие женского образования, повышение общественного положения женщин и совершенствование знаний матерей в воспитании подрастающего поколения. На примере деятельности Исмаила Гаспринского, Махмудходжи Бехбуди, Абдурауфа Фитрата, Абдуллы Авлони, Абдулкадыра Шакури и других просветителей рассматривается социально-просветительское значение женского образования в Туркестане. На основании материалов периодической печати, архивных документов и исторической литературы исследуются организация школ для девочек, опыт совместного обучения мальчиков и девочек, а также вовлечение женщин в культурную жизнь и театральное искусство. Обосновывается положение о том, что представители джадидского движения рассматривали повышение грамотности женщин как важнейшее условие национального развития, совершенствования семейного воспитания и духовного обновления общества.

Ключевые слова: джадидское движение, Туркестан, просветительство, грамотность женщин, новометодные школы, женское образование, национальное возрождение, педагогические взгляды, Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони.

THE JADID MOVEMENT AND WOMEN'S LITERACY ISSUES IN TURKESTAN

Abstract. This article examines the educational and pedagogical activities of the Jadid movement, which emerged in Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries, with particular emphasis on its initiatives to improve women's literacy. It explores Jadid reformers' views on establishing new-method schools, developing girls' education, improving women's social status and strengthening mothers' educational capacities in raising the younger generation. Through the activities of Ismail Gasprinsky, Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, Abdulqodir Shakuri and other prominent educators, the article reveals the social and educational significance of women's education in Turkestan. Drawing on periodical publications, archival documents and historical literature, the study examines the establishment of girls' schools, early experiences of co-education, and women's participation in cultural life and theatrical activities. It demonstrates that Jadid intellectuals regarded women's literacy as an essential prerequisite for national development, improved family education and the spiritual renewal of society.

Keywords: Jadid movement, Turkestan, enlightenment, women's literacy, new-method schools, girls' education, national revival, pedagogical views, Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Avloni.

KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan muhim o‘zgarishlar milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va ta’limni isloh qilish g‘oyalarining keng tarqalishiga zamin yaratdi. Mazkur davrda shakllangan jadidchilik harakati xalqni ilm-ma’rifatga chorlash, jamiyatdagi ijtimoiy qoloqlikni bartaraf etish, milliy o‘zlikni anglash va zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Jadidlar nazarida millatning taraqqiyoti, eng avvalo, uning ilmiy-ma’rifiy salohiyati, yosh avlodning bilim darajasi va jamiyat a’zolarining dunyoqarashiga bog‘liq edi.

Bugungi globallashuv va ta’lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida tarixiy-pedagogik merosni o‘rganish, o‘tmish ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlarini zamonaviy ta’lim jarayoni bilan bog‘liq holda tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jadidlarning ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholagani, maktab-maorif tizimini yangilashga intilgani va xotin-qizlar savodxonligi masalasini millat kelajagi bilan bog‘lagani bugungi kun uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jadidchilik harakati dastlab ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish, milliy matbuotni rivojlantirish hamda teatr san’atini xalq ma’rifatiga xizmat qildirish kabi yo‘nalishlarda faol namoyon bo‘ldi. Bu faoliyatlarning barchasi Turkiston

aholisining dunyoqarashini kengaytirish, mustamlakachilik sharoitida milliy taraqqiyot g‘oyalarini shakllantirish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashga qaratilgan edi.

Mazkur jarayonda xotin-qizlar ta’limi masalasi ham jadidlar e’tiboridagi muhim ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri bo‘ldi. Chunki ular jamiyatning ma’naviy va intellektual rivojlanishini faqat erkaklarning bilim olishi bilan cheklab bo‘lmasligini anglaganlar. Ayolning oiladagi tarbiyaviy o‘rni, farzandlar kamolotiga ta’siri va jamiyat hayotidagi ishtiroki uning ilmli bo‘lishini zarur shart sifatida kun tartibiga olib chiqdi.

O‘sha davr Turkiston jamiyatida qizlarning ta’lim olishi turli ijtimoiy va an’anaviy qarashlar bilan cheklangan edi. Mavjud qizlar maktablarida asosan diniy bilimlar, Qur’on suralari, ayrim she’riy asarlar va o‘qish ko‘nikmalari o‘rgatilgan, yozuv hamda dunyoviy fanlarga esa yetarli e’tibor qaratilmagan. Ko‘plab qizlarning ta’lim olishi erta yoshda to‘xtatilgan. Bunday sharoitda jadidlar xotin-qizlar savodxonligini oshirishni oilaviy tarbiya va milliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida ilgari surdilar.

Tadqiqotning dolzarbligi jadid ma’rifatparvarlarining xotin-qizlar ta’limiga oid qarashlari va amaliy faoliyatini tarixiy manbalar asosida o‘rganish, ularning milliy ta’lim taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati namoyandalarining xotin-qizlar savodxonligini oshirish, qizlar ta’limini rivojlantirish va ayollarning ijtimoiy-ma’rifiy faolligini kengaytirish borasidagi faoliyatini tarixiy-pedagogik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun jadidchilik harakatining ta’lim sohasidagi asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, qizlar ta’limining o‘sha davrdagi holatini o‘rganish, jadid namoyandalarining xotin-qizlar savodxonligi haqidagi qarashlarini tahlil qilish hamda yangi usul maktablari, matbuot va teatr faoliyatining ayollar ma’rifatiga ta’sirini yoritish vazifalari belgilandi.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Jadidchilik harakati va uning Turkiston ijtimoiy-ma’rifiy hayotidagi o‘rni tarixiy hamda pedagogik tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masalani o‘rganishda jadid namoyandalarining asarlari, davriy matbuot materiallari, arxiv hujjatlari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar muhim manba vazifasini bajaradi.

Jadidchilik harakatining shakllanishida Ismoilbek Gaspiralining ma’rifiy qarashlari alohida o‘rin tutadi. U 1884-yilda Qrimning Bog‘chasaroy shahrida yangi usul maktabini tashkil etib, ta’lim jarayonini isloh qilishga qaratilgan amaliy faoliyatni boshlab berdi. Uning «Tarjimon» gazetasi orqali ilgari surgan g‘oyalari musulmon xalqlari orasida zamonaviy ta’limni rivojlantirish, maktablarda o‘qitish usullarini takomillashtirish va qizlar maorifiga e’tibor qaratish zarurligini targ‘ib

qildi. Gaspirali nazarida jamiyat taraqqiyoti ayollar ta’limidan ajralgan holda rivojlana olmas edi.

Turkiston jadidchiligining yirik namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy xotin-qizlarning ilm olishi va jamiyat hayotidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratgan. Uning qarashlarida xalqning ma’rifiy taraqqiyoti oiladagi tarbiya, onalarning bilim darajasi va yosh avlodning dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liq holda talqin etiladi. Behbudiy matbuot orqali ayollar ta’limi, qizlar maktablarini tashkil etish va zamonaviy bilimlarni egallash masalalarini keng targ‘ib qilgan. «Samarqand» gazetida e’lon qilingan «Muslimalar uchun maktab» nomli xabar bu boradagi amaliy tashabbuslarning muhim dalillaridan biridir.

Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlarida ham farzand tarbiyasi, oilaning ma’naviy muhiti va ayollarning bilim olishi masalalari muhim o‘rin egallaydi. Uning fikricha, bolalar tarbiyasining dastlabki bosqichi oilada shakllanadi. Shu sababli farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi onalar ilmli, ma’rifatli va zamonaviy bilimlardan xabardor bo‘lishlari zarur. Fitrat oilaviy tarbiyani millatning kelajagi bilan bog‘lab, onaning ma’naviy va intellektual salohiyatiga alohida ahamiyat bergan.

Abdulla Avloniy asarlarida ham ta’lim va tarbiya masalalari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida yoritiladi. Uning pedagogik qarashlarida o‘g‘il va qiz bolalarning bilim olishi, ilmning inson hayotidagi ahamiyati hamda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish g‘oyalari yetakchilik qiladi. Avloniy ta’limni faqat individual kamolot vositasi emas, balki jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholagan.

Jadidlarning ayollar savodxonligiga munosabatini o‘rganishda davriy matbuot materiallari ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, «Turkiston viloyatining gazeti», «Sadoi Turkiston» va «Samarqand» gazetalarida e’lon qilingan maqola va xabarlar o‘sha davrdagi ijtimoiy qarashlar, ayollar ta’limiga munosabat hamda ma’rifatparvarlarning tashabbuslarini o‘rganish imkonini beradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi materiallari yangi usul maktablari faoliyati, o‘quvchilar tarkibi va qizlarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki haqida muhim tarixiy ma’lumotlarni taqdim etadi. B.Qosimovning jadidchilik tarixiga oid tadqiqotlari esa harakat namoyandalarining ma’rifiy qarashlari, xotin-qizlar masalasiga munosabati va milliy uyg‘onish jarayonidagi faoliyatini kengroq anglashga yordam beradi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakatining umumiy ma’rifiy faoliyati yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, xotin-qizlar savodxonligi masalasini maktab ta’limi, matbuot, teatr va oilaviy tarbiya bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatlarni yaxlit tarixiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot tarixiy-pedagogik yo‘nalishda olib borilib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining xotin-qizlar savodxonligini

oshirishga qaratilgan faoliyatini o‘rganishga asoslandi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik, tizimlilik va ilmiy tahlil tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik, davriy matbuot materiallarini o‘rganish, arxiv hujjatlarini tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarni qiyoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod orqali an’anaviy qizlar maktablari bilan jadidlarning yangi usul maktablaridagi ta’lim mazmuni va o‘qitish xususiyatlari o‘zaro taqqoslandi. Manbashunoslik tahlili asosida jadid namoyandalarining xotin-qizlar ta’limiga oid qarashlari ularning maqolalari, publitsistik chiqishlari va pedagogik asarlari orqali o‘rganildi.

«Turkiston viloyatining gazeti», «Sadoi Turkiston» va «Samarqand» kabi davriy nashrlarda e’lon qilingan materiallar o‘sha davrda ayollar ta’limi atrofida kechgan ijtimoiy munozaralarni aniqlashga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hujjatlari esa yangi usul maktablarida qizlarning tahsil olishi, maktablarning faoliyati va o‘quvchilar tarkibiga oid tarixiy dalillarni tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotda jadid namoyandalarining pedagogik qarashlari alohida shaxslar faoliyati doirasidagina emas, balki umumiy milliy uyg‘onish jarayonining tarkibiy qismi sifatida baholandi. Shu asosda xotin-qizlar savodxonligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarning ta’lim, oila, matbuot, teatr va ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligi aniqlashtirildi.

NATIJALAR

Tarixiy manbalar tahlili XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda xotin-qizlar ta’limining rivojlanishi murakkab ijtimoiy sharoitda kechganini ko‘rsatadi. O‘sha davrda qizlar uchun mavjud bo‘lgan maktablarning asosiy qismi an’anaviy otinoyilar maktablaridan iborat bo‘lib, ularda ta’lim jarayoni asosan diniy bilimlar, Qur’on suralarini o‘qish va ayrim adabiy matnlarni o‘rganish bilan cheklangan. Qizlarning yozuv, hisob va dunyoviy fanlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari esa ancha cheklangan edi.

Otinoyilar yoki bibixalifalar tomonidan tashkil etilgan mashg‘ulotlarda qizlar, asosan, «Haftiyak» va Qur’onning ayrim suralarini o‘qishni o‘rganganlar. Ayrim hollarda fors va turkiy she’riyat namunalari ham o‘qitilgan. Biroq ta’lim jarayonida yozuv va amaliy bilimlarga yetarli e’tibor berilmagan. Qizlarning maktabda o‘qish muddati ham ko‘pincha qisqa bo‘lib, ular voyaga yetishi bilan ta’limdan chetlashtirilgan.

Jadid ma’rifatparvarlari ana shu holatni jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida baholadilar. Ular ayollarni faqat oilaviy yumushlar bilan cheklash, qizlarning ilm olishini ortiqcha deb hisoblash kabi qarashlarni tanqid qildilar. Jadidlarning fikricha, ayolning bilimli bo‘lishi farzand tarbiyasining sifatiga, oilaning ma’naviy muhitiga va butun jamiyatning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bu qarashlar davriy matbuotda ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan, «Sadoi Turkiston» gazetasida e’lon qilingan maqolalarda ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ilm olish huquqi va oilaviy tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan. Nashrda ayolning ona sifatidagi maqomi alohida ta’kidlanib, uning ilmli bo‘lishi yosh avlod tarbiyasining zarur sharti sifatida ko‘rsatilgan.

Ismoilbek Gaspiralining ma’rifiy qarashlari Turkiston jadidlari faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U 1884-yilda yangi usul maktabini tashkil etish bilan birga, «Tarjimon» gazetasi orqali ta’lim tizimini isloh qilish, qizlar maorifini rivojlantirish va musulmon jamiyatida zamonaviy bilimlarni keng yoyish g‘oyalarini ilgari surdi. Gaspirali nazarida qizlarning ta’lim olishi millatning kelajakdagi ma’naviy taraqqiyoti uchun zarur shartlardan biri edi.

Xotin-qizlar savodxonligi masalasi «Turkiston viloyatining gazeti» sahifalarida ham muhokama qilingan. Xususan, 1909-yilda Toshkentdagi musulmon qizlar maktabida teatr tomoshasi tashkil etilgani va unda qizlarning sahnada ishtirok etgani haqida xabarlar berilgan. Ushbu voqea jamiyatda ayollarning ta’lim olishi va jamoat hayotida qatnashishiga nisbatan turlicha munosabatlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Mazkur masala bo‘yicha Qo‘qonlik Fayzulla afandining «Xotunlarg‘a ilm lozummu?» sarlavhali maqolasi alohida e’tiborga loyiq. Muallif unda Turkiston ayollarining ilm-ma’rifatdan chetda qolayotganini tanqid qilib, farzand tarbiyasida onaning bilim darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. U ayollarning o‘zlari ta’lim olmagan holda farzandlariga qanday qilib zamonaviy tarbiya bera olishlari masalasini o‘rtaga tashlaydi. Shu tariqa muallif xotin-qizlar savodxonligini shaxsiy yoki oilaviy masala emas, balki umumjamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq muammo sifatida talqin qiladi.

Mazkur munozaraga Mahmudxo‘ja Behbudiy ham munosabat bildirgan. U «Fayzulla afandiga javob» maqolasida musulmon jamiyatida ilm-ma’rifatga munosabatning sustligini tanqid qilib, ayollarning ham ilm olishi zarurligini diniy va ijtimoiy dalillar asosida asoslashga intilgan. Behbudiy fikricha, ilm olish zarurati erkaklar bilan cheklanmasligi, ayollar ham bilim va tarbiya olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim.

Behbudiyning amaliy faoliyatida ham qizlar ta’limini rivojlantirish masalasi muhim o‘rin egallagan. «Samarqand» gazetasining 1913-yil 34-sonida e’lon qilingan «Muslimalar uchun maktab» xabarida turkiyalik muallima Fayziya Abdulrashid tomonidan qizlar uchun xususiy maktab tashkil etilgani haqida ma’lumot berilgan. Maktabning asosiy maqsadi musulmon jamiyatiga bilimli va tarbiyali onalarni yetkazib berish sifatida izohlangan. Mazkur ta’lim muassasasida Misr, Eron, Hindiston va Qrim kabi hududlardan kelgan qizlarning tahsil olgani ham qayd etilgan. Bu holat qizlar ta’limi masalasi faqat Turkistonga xos bo‘lmay, kengroq musulmon ma’rifiy muhitida ham muhokama qilinganini ko‘rsatadi.

Behbudiy o‘z oilasida ham farzandlar ta’limiga alohida e’tibor qaratgan. Uning qizi Parvinning yangi usul maktabida tahsil olishi va fransuz tilini o‘rganishi

ma’rifatparvarning qizlar ta’limiga oid qarashlari shaxsiy hayotida ham amaliy ifoda topganidan dalolat beradi. Parvin keyinchalik maktablardan birida fransuz tilidan dars bergani haqidagi ma’lumotlar ayollar ta’limining keyingi avlod vakillariga ham ta’sir ko‘rsatganini anglatadi.

Abdurauf Fitratning qarashlarida ham ona va farzand tarbiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim o‘rin tutadi. U oiladagi tarbiyani inson kamolotining dastlabki va eng mas’uliyatli bosqichi sifatida baholaydi. Fitrat nazarida farzandning axloqiy, aqliy va ma’naviy shakllanishi ko‘p jihatdan onaning bilim darajasi va tarbiyaviy salohiyatiga bog‘liq. Shu sababli ayollarni ilm-ma’rifatga jalb etish millatning kelajagi uchun zarur vazifa sifatida talqin qilinadi.

Jadidlarning ta’lim sohasidagi tashabbuslari yangi usul maktablarida ham o‘z ifodasini topdi. Ayrim maktablarda o‘g‘il va qiz bolalarning birgalikda ta’lim olishi tashkil etildi. Samarqandda Abdulqodir Shakuriy tomonidan yo‘lga qo‘yilgan maktablarda qizlarning ham tahsil olishi ana shunday tajribalardan biri edi. Bu jarayonda Shakuriyning turmush o‘rtog‘i qizlarga ta’lim berishda yordam ko‘rsatgan. Mazkur tajriba mahalliy ayrim boylar va diniy doiralar tomonidan norozilik bilan qarshi olingan bo‘lsa-da, Turkistonning boshqa hududlarida ham qizlar ta’limini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarga turtki berdi.

Arxiv hujjatlarida Toshkentdagi ayrim yangi usul maktablarida qizlarning tahsil olgani qayd etilgan. Jumladan, Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev maktabida uch nafar, Sobirjon Rahimovning «Rahimiya» maktabida esa o‘n besh nafar qiz o‘qiganligi haqidagi ma’lumotlar mavjud. Qo‘qon shahrining G‘alchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy tomonidan 1913-yilda yangi usul maktabi tashkil etilib, keyinchalik qizlar uchun alohida ta’lim muassasasi ham yo‘lga qo‘yilgan. Unda Soliyaxon Abduxoliq qizi ta’lim berish bilan shug‘ullangan.

Abdulla Avloniy faoliyatida ham qizlar ta’limiga e’tibor berilgan. Uning maktabida qizlarning o‘g‘il bolalar bilan birga o‘qishi ta’limga nisbatan yangicha yondashuvning amaliy ifodasi bo‘ldi. Avloniy o‘z she’riy va pedagogik asarlarida ilm olishni inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida ulug‘lagan.

Sadriddin Ayniy xotiralarida ham bolalik davrida qizlar maktabida tahsil olgani haqida ma’lumot beradi. Uning qayd etishicha, qishloq masjidi qoshidagi maktabda yetarli bilim ololmagach, otasi uni qishloq imomining turmush o‘rtog‘i tomonidan tashkil etilgan qizlar maktabiga bergan. Ayniy ushbu maktabdagi ta’limni avvalgisiga nisbatan yaxshiroq deb baholaydi. Bu ma’lumotlar ayrim qizlar maktablarida ta’lim mazmuni va o‘qitish sifati an’anaviy maktablarga qaraganda yuqoriroq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Jadidlarning xotin-qizlar ma’rifatiga qaratilgan faoliyati faqat maktablar tashkil etish bilan cheklanmagan. Ular matbuot, adabiyot, teatr va boshqa madaniy-ma’rifiy vositalardan ham keng foydalanganlar. Xususan, teatr tomoshalari orqali tushgan mablag‘larning bir qismini qizlar ta’limi uchun yo‘naltirish amaliyoti mavjud

bo‘lgan. «Sadoi Turkiston» gazetasida 1914-yil 6-iyunda Andijonda namoyish etilgan «Padarkush» spektaklidan tushgan mablag‘ning 20 foizi qizlar gimnaziyasi foydasiga ajratilgani haqida xabar berilgan.

Ayollarning teatr san’atida ishtirok etishi ham jadidlar ilgari surgan ma’rifiy yangilanishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. «Turon» teatr truppasi faoliyati bu borada alohida ahamiyatga ega. Ma’lumotlarda Ma’sumaxonimning truppa faoliyatidagi ishtiroki va keyinchalik o‘zbek sahna san’atining taniqli vakillaridan biriga aylangani qayd etiladi. Bu jarayon xotin-qizlarning nafaqat ta’lim olish, balki madaniy va ijtimoiy hayotda faol qatnashish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Umuman, tadqiqot natijalari jadidchilik harakatida xotin-qizlar savodxonligi masalasi mustaqil va tasodifiy tashabbus bo‘lmaganini ko‘rsatadi. U milliy uyg‘onish, oilaviy tarbiyani takomillashtirish, jamiyatning ma’naviy yangilanishi va yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan umumiy ma’rifiy dasturning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan.

MUHOKAMA

Jadidchilik harakatining xotin-qizlar ta’limiga munosabatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu masala o‘sha davrda mavjud bo‘lgan ijtimoiy qarashlar, oilaviy munosabatlar va ta’lim tizimidagi cheklovlar bilan chambarchas bog‘liq edi. Jadidlar ayollar savodxonligini oshirish orqali faqat bir guruh aholining ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni emas, balki butun jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirishni maqsad qilganlar.

Jadidlarning pedagogik qarashlarida ona tarbiyasiga alohida ahamiyat berilishi bejiz emas edi. Ular bolaning dastlabki tarbiyasi oilada shakllanishini, ayniqsa, onaning bilim darajasi farzandning dunyoqarashi, axloqi va ma’naviy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishini chuqur anglaganlar. Shu sababli ayollarning ilm olishi oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida talqin qilingan. Biroq jadidlarning ayollar ta’limiga oid qarashlarini faqat onalik vazifasi bilan cheklash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ularning faoliyatida xotin-qizlarning mustaqil bilim olishi, ijtimoiy hayotda ishtirok etishi, madaniy faoliyat bilan shug‘ullanishi va jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida shakllanishi g‘oyalari ham mavjud edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniy qarashlarida bu jihatlar turlicha shaklda namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy g‘oya ilm-ma’rifatning jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi ahamiyatidir. Behbudiy ayollar ta’limini matbuot va jamoatchilik muhokamasi orqali ilgari surgan bo‘lsa, Fitrat oilaviy tarbiya va millat kelajagi bilan bog‘lagan. Avloniy esa ta’lim va tarbiyani insonning ma’naviy kamoloti hamda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida baholagan.

Yangi usul maktablarida qizlarning tahsil olishi, ayrim ta’lim muassasalarida o‘g‘il va qiz bolalarning birgalikda o‘qitilishi o‘sha davr uchun muhim pedagogik

yangilik edi. Bu tajribalar ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, jamiyatdagi mavjud qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga ham xizmat qildi. Albatta, bunday tashabbuslar turli qarshiliklarga uchragan, ammo jadidlarning ma’rifiy faoliyati natijasida qizlar ta’limi masalasi jamoatchilik muhokamasining muhim mavzusiga aylangan.

Matbuot va teatr faoliyatining xotin-qizlar savodxonligini oshirishdagi o‘rni ham alohida e’tiborga loyiq. Gazeta va jurnallar orqali ayollar ta’limining zarurligi asoslangan, jamoatchilik fikri shakllantirilgan va yangi maktablar faoliyati targ‘ib qilingan. Teatr esa ijtimoiy muammolarni ommaga yetkazish, ma’rifiy g‘oyalarni keng tarqatish va qizlar ta’limini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Shuningdek, ayollarning teatr sahnasiga chiqishi va madaniy faoliyatda ishtirok etishi ularning jamiyatdagi mavqeini o‘zgartirishga qaratilgan muhim qadamlar edi. Bu jarayon xotin-qizlarning faqat oilaviy doira bilan chegaralanib qolmasdan, ijtimoiy va madaniy hayotda ham faol ishtirok etishi mumkinligini namoyon etdi.

Jadidlarning xotin-qizlar masalasiga oid qarashlari o‘sha davr sharoitida mavjud bo‘lgan an’anaviy cheklovlarga nisbatan yangicha yondashuvni ifodalagan. Ular ayollarning bilim olishi, huquqlarini anglashi va jamiyat taraqqiyotida ishtirok etishini milliy uyg‘onishning zarur sharti sifatida ko‘rganlar. Shu jihatdan jadidchilik harakatining ma’rifiy merosi bugungi kunda ham tarixiy-pedagogik ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Mazkur tarixiy tajriba zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham muhim xulosalar beradi. Xususan, ta’limda teng imkoniyatlarni ta’minlash, oilaviy tarbiya va maktab hamkorligini mustahkamlash, ayollarning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda jamiyatda ilm-ma’rifat qadriyatlarini keng targ‘ib qilish kabi masalalar jadidlar ilgari surgan g‘oyalarning bugungi kundagi davomiyligini ko‘rsatadi.

XULOSA

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati milliy ta’lim, ma’rifat va ijtimoiy taraqqiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi. Jadidlar jamiyatning rivojlanishini ilm-ma’rifat bilan bog‘lab, ta’lim tizimini yangilash, yosh avlodning bilim darajasini oshirish va xotin-qizlarning savodxonligini ta’minlashni dolzarb vazifa sifatida ilgari surdilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidlar xotin-qizlar ta’limini millat taraqqiyoti va oilaviy tarbiyaning muhim sharti sifatida baholaganlar. Ularning fikricha, ilmli ona bilimli, ma’naviy yetuk va mustaqil fikrlaydigan avlodni tarbiyalashga qodir bo‘ladi. Shu sababli ayollarning ta’lim olishi faqat shaxsiy manfaat emas, balki butun jamiyatning kelajagiga daxldor masala sifatida talqin qilingan.

Ismoilbek Gaspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Abdulqodir Shakuriy kabi ma’rifatparvarlarning faoliyati xotin-qizlar savodxonligini oshirish borasidagi nazariy qarashlar amaliy tashabbuslar bilan mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Yangi usul maktablarining tashkil etilishi, qizlarning

umumiy ta’limga jalb qilinishi, ayollar uchun maxsus maktablar ochilishi va ularning madaniy hayotda ishtirok etishi bu boradagi muhim tarixiy natijalardan hisoblanadi.

Davriy matbuot, adabiyot va teatr jadidlarning ma’rifiy g‘oyalarini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, «Turkiston viloyatining gazeti», «Samarqand» va «Sadoi Turkiston» nashrlarida ayollar ta’limiga oid maqola va xabarlarning e’lon qilinishi mazkur masalaning ijtimoiy muhokamaga olib chiqilganidan dalolat beradi. Teatr faoliyati esa xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ta’lim tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilgan.

Jadidlarning xotin-qizlar savodxonligiga oid qarashlari milliy uyg‘onish g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ayollarni ma’rifat, ilm va ijtimoiy taraqqiyot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ko‘rishga asoslangan edi. Ular jamiyatdagi jaholat, savodsizlik va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishda ta’limning imkoniyatlariga katta umid bog‘laganlar.

Shunday qilib, Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ta’limiga oid faoliyati milliy pedagogik tafakkur rivojida muhim bosqichni tashkil etadi. Ularning ma’rifiy merosini chuqur o‘rganish bugungi ta’lim tizimida tarixiy xotira, ta’limda teng imkoniyatlar, oilaviy tarbiya va ma’naviy kamolot masalalarini yanada teran anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Oila munozarasi // Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – B. 135.

2. Axrarova Z. B., Sodiqov U. J., Sodiqova Sh. O. Umumiy pedagogika: darslik. – Toshkent: Ma’rifat, 2024. – 310 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA). 1-I-fond, 31-ro‘yxat, 943-ish, 23-varaq.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA). 47-I-fond, 1-ro‘yxat, 1148-ish, 149-orqa varaq.

5. Tojiboyev R. Ma’rifat fidoyisi // Sog‘lom avlod uchun. – 1999. – № 4–5. – B. 46.

6. Turkiston viloyatining gazeti. – 1910-yil 23-may.

7. Sadoi Turkiston. – 1914-yil 30-may.

8. Samarqand gazetasi. – 1913-yil. – № 34.